O‘QUVCHILARDA MILLIY TARBIYA G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI

Boymurodova Shalola Ibodullayevna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna
Buxoro davlat texnika universiteti
https://orcid.org/0009-0006-8531-5571
hokimyat_stroy@umail.

Annotatsiya *Ushbu maqolada o’quvchilarda milliy tarbiya g’oyalarini shakillantirishning mavjud holati yoritilgan. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an’analar va ma’naviy merosning o’quvchilar tarbiyasidagi roli tahlil qilingan. Bundan tashqari ta’lim va ta’rbiya jarayonida milliy tarbiyaviy omillarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg’unlashtirish yo’llari keltirilgan. Tadqiqot natijalari o’quvchilarda milliy o’zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakillantirish, vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat uyg’otishda milliy tarbiya g’oyalarining natijadorligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *o’quvchilar, milliy tarbiya, milliy tarbiya g’oyalari, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, an’anaviy tarbiya, xalq pedagogikasi, tarbiyaviy jarayon, shaxs kamoloti, pedagogik shart-sharoitlar.*

Аннотация *В данной статье освещено современное состояние формирования идей национального воспитания у учащихся. Проанализирована роль национальных обычаев, ценностей, традиций и духовного наследия в воспитании учащихся. Кроме того, рассмотрены пути интеграции национальных воспитательных факторов с современными образовательными технологиями в процессе обучения и воспитания. Результаты исследования обосновывают эффективность идей национального воспитания в формировании у учащихся национальной идентичности, духовно-нравственных качеств, преданности Родине и уважения к национальным ценностям.*

Ключевые слова: *учащиеся, национальное воспитание, идеи национального воспитания, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, традиционное воспитание, народная педагогика, воспитательный процесс, формирование личности, педагогические условия.*

Annotation *This article highlights the current state of forming national educational ideas among students. The role of national customs, values, traditions, and spiritual heritage in students' upbringing is analyzed. In addition, the ways of integrating national educational factors with modern educational technologies in the teaching and learning process are presented. The research findings substantiate the effectiveness of national educational ideas in fostering students' national identity, spiritual and moral qualities, patriotism, and respect for national values.*

Keywords: *students, national upbringing, ideas of national upbringing, spiritual and moral education, national values, traditional upbringing, folk pedagogy, educational process, personality development, pedagogical conditions.*

Kirish. Hozirgi shiddatli globallashuv davrida har bir xalq o‘zining madaniy o‘ziga xosligi, tili, tarixi va an’analarini saqlab qolish va avloddan-avlodga o‘tkazish masalasiga jiddiy e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g‘oyasi asnosida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ta’lim tizimining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa o‘quvchilarda milliy tarbiya g‘oyalarini shakllantirish – bu faqat bilim berish emas, balki ularning qalbi va ongiga milliy iftixor tuyg‘ularini singdirish jarayonidir.

Jumladan o‘quvchi yoshlarning milliy g‘ururini o‘stirish badiiy, moddiy va ma’naviy, axloqiy ma’no kasb etadi. Bunda milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar ma’naviy asos bo‘lib katta xizmat qiladi. Uning moddiy asosini asosan nashriyotlar, kinoteatrlar, kutubxonalar, kontsert zallari, teleko‘rsatuvlar, radio va boshqalar tashkil etadi. Milliy g‘ururning badiiy mazmuni, uning milliyligi va umuminsoniyligi, badiiy boyliklarning hammabopligi, badiiy san’at asarlarining insonparvarligi, g‘oyaviyligi, hayotiy mushtarakligi bilan baholanadi. Har bir tarbiya dargohlarida o‘quvchi insonparvarlik va vatanparvarlik qoidalariga rioya qilgan holda, insonni har tomonlama himoya qilishga, uni ulug‘lashga, milliy g‘ururlanishga qaratilishi kerak. Haqiqiy vatanparvar unvonini olish uchun insonga juda katta mas’uliyatli ma’naviy-axloqiy vazifalar yuklanadi. Har qanday hodisa bo‘lishidan qat’i nazar, tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ini, shaharini, boshqacha aytganda, kindik qoni to’kilgan zamin — Vatanini tark etilmaydi. Albatta bunday insonlar asl vatanparvarlar deya ta’kidlanadi. Zero, faxrlanish haqiqatdan ham yaxshi ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo‘ladi. Zotan, Vatanni sevish, xalqni hurmat qilish faxrlanish yoxud ulardan g‘ururlanish belgisi bo‘lib, bu yaxshi xulq va yaxshi fazilatdir. Kimki

millatning madaniyati tarixidan, ajdodlari qoldirgan barcha merosdan, hamma sohadagi an'analaridan faxrlana olsa, o'tmishda Vatani va xalqi boshiga tushgan dahshatli va ayanchli fojiaviy taqdirdan achinsa, u Vatan va xalqi kelajagi uchun, nurli istiqlol yo'lida fidoyi bo'lish orzusida yashaydi, mehnat qiladi, o'z kasbining yetuk ustasi bo'lishga intiladi, tashabbuskorlikni qo'lga kiritish armonlari bilan nafas oladi. Insonparvarlik va vatanparvarlik har bir o'quvchi uchun, birinchidan, kundalik ma'naviy fazilat bo'lib qolishi, ikkinchidan, o'quvchi ongi va faoliyati demokratik jamiyat yaratishga qaratilgan bo'lishi, uchinchidan, huquqiy davlat yaratishga qo'lidan kalgancha o'z hissasini qo'shishga tayyor bo'lishini taqozo etadi. Har bir o'quvchining faoliyatida oshkoralik tamoyili ustuvor bo'lishi zarur. Oila baxt-saodati haqida qayg'urish, farzandlarni kasb-hunarli qilib tarbiyalash, vatanga, xalqqa sadoqatli kishilar qilib yetishtirish ham vatanparvarlikning yorqin namunasidir. Shunday xususiyatlarni o'z tarbiyasida xulq-atvorida mujassam eta oladigan o'quvchi uning faoliyatida og'ir vaziyatda vujudga keladigan muammolarni muzokara, munozara, yo'li bilan hal qilishga intiladi va shu yo'llar bilan g'ururiga putur yetkazmaslikka harakat qiladi. Mustaqilligimizning tantana qilishida milliy qadriyatlar va e'tiqodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lganini aslo unutmasligimiz kerak. Asrlar davomida sinovdan o'tgan, milliy istiqlol g'oyalaridan tarbiya jarayonida foydalanish o'quvchiga o'zligini anglashda va milliy g'ururli bo'lishida juda katta yordam beradi.

Tadqiqot metodlari. Quydagi maqolani yozishda qidiruv usullaridan keng foydalanildi. Bunda qiyosiy tahlil, so'rovnoma usullaridan ham samaraliroq foydalanildi. Qidiruv tizimlaridan asosan google qidiruv tizimi, rambler, yandex qidiruv tizimlari hamda scopus ma'lumotlar bazasidan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotimiz doirasida respublikada bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan Botirova Nazokat Ro'zimovnaning o'quvchilarning tarixiy bilimlarini boyitish, milliy g'urur tuyg'ularini rivojlantirish uchun me'moriy yodgorliklarga oid materiallardan foydalanish masalasiga-bag'ishlanganligi. Maqolada O'zbekistonda mavjud bo'lgan 18-19 asrlarga oid ma'lum bir davr voqiyalari bilan bog'liq bo'lgan tarixiy obidalar haqida qisqacha ma'lumotlar berilganligi, bu esa o'quvchilarning intellektual va ma'naviy-ahloqiy rivojlanishi uchun illyustrativ materiallar, ekskursiyalardan foydalanish imkoniyatlari nomli maqolasida bir qancha ilmiy farazlar hamda qarashlar o'z isbotini topgan.

Kosimbetova Ziyuar Yesbosinovnaning o'quvchilarning milliy g'ururini shakllantirishdagi, ta'-lim-tarbiya jarayonida zarur usul va vositalar asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiya mazmunidagi milliy, umuminsoniy qadriyatlar, urf-odatlar,

an’analar kabi muhim pedagogik talablarga rioya etishga bog‘liqligi batafsil yoritib berilgan.

Tayirova Muhabbat Ataxanovnaning zamonaviy raqamli davrda milliy tarbiya avvalgi shakllardan farqli o‘laroq yangicha yondashuvni talab etayotganligi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalarning keng tarqalishi nafaqat ta’lim-tarbiya tizimiga, balki ijtimoiy hayotga ham chuqur ta’sir ko‘rsatayotganligi. Ushbu o‘zgarishlar milliy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlarini va istiqbollarini qayta ko‘rib chiqishga zarurat tug‘dirishi. Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik qonuniyatlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlik va uzviylikni yangi darajaga ko‘tarish chuqur tahlil etilgan.

Abduraxmonova Maxbuba Togaymurotovnaning yoshlarni milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyasi haqida so‘z boradi. Har bir inson o‘z umrini qanday kechirganligi ibratli ishlar bajarganligi hisob kitob qilib borishi. Uning ko‘nglida, men qanday zotlarning vorisimanu va men ajdodlarimga munosibmanmi? -degan savolni ko‘nglida o‘tkazishi. Buyuk allomalarimiz shu qadar yuksak meros qoldiribdiki, mendan nima qoladi - degan tuyg‘u bilan yashashi. Darhaqiqat qadimdan milliy qadriyatlar muqaddas hisoblanib takrorlanmas urf-odat va liboslar ma’naviy boyliklar qadrlanganligi. Bu yo‘lda past yoki baland, yaqin va uzoq mashaqqat bilan erishiladigan vazifalar mavjududligi haqida fikr yuritilgan.

Ayniqsa Egamov Yusufboy Ergashbek o‘g‘lining yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar katta o‘rin egallashi. Bunga misol sifatida turli shakllarda namoyon bo‘ladigan madaniyat durdonalari, tarix, xalq og‘zaki ijodi namunalari, xalq hunarmandchiligi, tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va hokazolarni keltirishimiz mumkin. ‘‘O‘zbek xalqining qadimiy "ustoz-shogird" an’anasi yoshlar tarbiyasida axloqiy-etik me’yorlarni singdirishda muhim vosita ekanligi. Bu tizim orqali nafaqat kasbiy ko‘nikmalar, balki insoniylik tamoyillari ham avloddan avlodga o‘tib kelgan haqida keng yoritib berilgan.

Natija va muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarda milliy tarbiya g‘oyalarini shakllantirish jarayoni bugungi kunda dolzarb va zarur pedagogik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘rganishlar davomida aniqlanishicha, ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ishlari olib borilayotgan bo‘lsa-da, bu jarayon har doim ham tizimli va izchil tashkil etilmayapti. Ayrim hollarda milliy tarbiya

elementlari faqat nazariy ma’lumotlar bilan cheklanib qolmoqda, amaliy faoliyat bilan yetarli darajada mustahkamlanmayapti.

Qiyosiy tahlil natijalari asosida shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat kabi sifatlar ko‘proq oila va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanmoqda. Ta’lim muassasalarida esa bu jarayonni yanada kuchaytirish uchun innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish talab etiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari milliy tarbiya g‘oyalarini samarali shakllantirish quyidagi omillarga bog‘liqligini ko‘rsatdi:

- ta’lim va tarbiya jarayonining uzviyligi;
- o‘qituvchilarning milliy qadriyatlar bo‘yicha metodik tayyorgarligi;
- oila, maktab va mahalla hamkorligining yo‘lga qo‘yilganligi;
- milliy tarbiya elementlarining dars va darsdan tashqari faoliyatda muntazam qo‘llanilishi.

Muhokama jarayonida ilmiy manbalar tahlili ham shuni tasdiqlaydiki, milliy tarbiya g‘oyalarini shakllantirish faqat alohida fan yoki yo‘nalish doirasida emas, balki barcha fanlar kesimida kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Xususan, tarix, adabiyot, ona tili, san’at kabi fanlar orqali o‘quvchilarga milliy merosni yetkazish samaraliroq natija beradi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan hozirgi davrda milliy tarbiyani yangi shakllarda – multimediya vositalari, virtual ekskursiyalar, onlayn platformalar orqali yetkazish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, milliy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek o‘quvchilarda milliy tarbiya g‘oyalarini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarning uyg‘unligini ta’minlash, pedagogik jarayonni innovatsion asosda tashkil etish hamda barcha ijtimoiy institutlar hamkorligini kuchaytirish zarur.

Xulosa o’rnida, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash bugungi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu esa o‘quvchilarda milliy tarbiya g‘oyalarini shakllantirish jarayonining naqadar muhim ekanligini yana bir bor asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.

2. Shavkat Mirziyoyev. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. *“Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasi to‘g‘risida*. – Toshkent, 2023.

4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. *Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida*. – Toshkent, 2019.

6. Botirova N.R. O‘quvchilarning tarixiy bilimlarini boyitish va milliy g‘ururini shakllantirishda me’moriy yodgorliklardan foydalanish. – Ilmiy maqola.

7. Kosimbetova Z.Y. O‘quvchilarda milliy g‘ururni shakllantirishning pedagogik asoslari. – Ilmiy tadqiqot ishlari.

8. Tayirova M.A. Zamonaviy raqamli muhitda milliy tarbiya masalalari. – Ilmiy maqola.

9. Abduraxmonova M.T. Yoshlarni milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyalash. – Ilmiy maqola.

10. Egamov Y.E. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni. – Ilmiy maqola.

11. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals*. – Paris,